

## RUS TADQIQOTCHILARINING TURKISTONDA OLIB BORGAN DASTLABKI GEOLOGIK TADQIQOLARI.

<sup>1</sup>Boboxonov Lochinbek Yunusali o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: officialbobokhonov@gmail.com,

<sup>2</sup>Normo'minov Samariddin Botirali o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: samariddinnormominnov@gmail.com,

<sup>3</sup>Sattorov Muzrob Chori o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: sattorovmuzrob87@gmail.com,

<sup>4</sup>Boboyev Faxriyor Baxtiyarovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: fahrier625@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7377056>

**Annotatsiya:** Maqolada Turkiston o'lkasi Podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng olib borilgan olib ilmiy geologik tadqiqotlar va ularning natijalari haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Tadqiqorlarning O'rta Osiyo geologiyasiga ta'siri, yaratilgan qimmatli asar va monografiyalar haqida ham ma'lumotlar sanab o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Zarafshon muzligi, geologik xarita, tuproqshunoslik, Tyanshan tizmalari, foydali qazilma va minerallar, Qo'qon geografiyasi, Vulqon hodisalari.

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, bu yerga rus olimlari kelib ko'plab tadqiqot ishlarini olib bordilar. Shunday murakkab va og'ir sharoitda ham o'lkashunoslar o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon etishga harakat qilganlar. O'rta Osiyoga kelgan olimlar o'lkadagi ilg'or mahalliy ziyolilarning namoyondalari bilan yaqin aloqada bo'lganlar.

O'rta Osiyo yurishlari davrida V.Radlov, A.Fedchenko, A.Kun, M.Middendorf kabi tadqiqotchilar samarali mehnat qildilar. Atoqli tilshunos va folklorshunos V.V.Radlov O'rta Osiyo xalqlarining tili va etnografiyasi haqida ancha qimmatbaho materiallar to'plagan edi. U 1868-yilda Zarafshon vodiysi bo'ylab sayohat qilib, o'zining shaxsiy kuzatishlari va qisman mahalliy aholining hikoya qilib bergan ma'lumotlari asosida O'rta Zarafshon vodiysiga doir qiziqarli ocherklar yozadi. Bu asarlarda o'zbek, tojik, qoraqalpoq, Turkman va boshqa xalqlar to'g'risida tarixiy va etnografik ma'lumotlar berilgan.

Tabiiy boyliklari, madaniy me'rosi g'oyat boy bo'lgan va kam tekshirilgan bu o'lka rus ziyolilarining taraqqiyotparvar qismini juda qiziqtirardi. Mashhur rus zoologi, zoogeografi, va sayyohi, darvinizmning e'tiqodli tarafdorlaridan bo'lgan N.|A.Seversov (1827-1886) Turkistonning ko'p joylarini fizik-geografik jihatdan

o'rganishda, jumladan, Pomir tizma tog'larining orografiyasini o'rganishda ko'p mehnat va kuch sarf qildi. N.A.Seversov sayohati vaqtida zoologiya, botanika, mineralogiya va paleontologiyaga oid juda qimmatli kolleksiyalar to'pladi.

Yirik tadqiqotchilardan A.P.Fedchenko (1844-1873) Turkiston tabiatini o'rganishda katta rol o'ynaydi. U Farg'ona vodiysi bilan Oloyni birinchi marta tekshirib chiqdi; Oloy orqasidagi tizma tog'lar va uning eng baland cho'qqisini aniqlash ham unga musharraf bo'ldi; u Zarafshon vodiysi va Qizilqum hududlarini ham o'rganib chiqdi. Zarafshon ekspeditsiyasi vaqtida keng tadqiqotlar o'tkazilib, har xil etnografik kolleksiyalar, hunarmandchilik mahsulotlari va asboblari to'plagan va rasmlar albomini tuzgan. Shuningdek, uning "Qo'qon xonligida" degan asarida Qo'qon xonligi tarixi, geografiyasi, etnografiyasi va iqtisodiyotiga oid ma'lumotlar berilganini ko'rishimiz mumkin.

Mashhur rus geografi P.P.Semyon-Tyanshanskiy (1827-1914) O'rta Osiyo, ayniqsa Tyanshan tizmalarining geografik o'rganilishiga asos soldi. Uning to'plagan ma'lumotlari asosida Tyanshanda Alp muzliklari mavjudligi masalasi ijobiy hal qilindi, nemis geografi Gumboldning Tyanshandagi vulqon hodisalari haqidagi fikrlari rad qilindi.

Geolog va geograf I.V.Mushketov (1850-1902) ning ilmiy xizmatlari ham katta. Shimoliy Tyanshan tizma tog'i orografiyasining geologik asoslarini dastlab u ko'rsatib berdi. U Turkistondagi ko'plab foydali qazilma konlarini ta'riflab, "Turkiston minerallarining dastlabki ro'yxati"ni tuzib chiqdi. 1877-1879-yillarda Mushketov geologik tekshirish ishlarini bajarish maqsadida Oloy, Pomir, Buxoro, Xisor, Amudaryo bo'ylab va Qizilqumga sayohat qildi. 1880-yilda esa Zarafshon muzligiga ilmiy safar uyushtiradi. Mushketov 1881-yilda (G.D.Romanovskiy bilan) Turkistonning birinchi geologik xaritasini tuzib chiqadi. I.V.Mushketov o'z tadqiqotlarini va Turkistonni o'rgangan boshqa olimlarning ilmiy ishlarini o'zining mashhur "Turkistonning geologiyasi va orografiyasi ta'rifi" nomli monografiyasida umumlashtiradi.

O'rta Osiyo tuprog'ini o'rganishda ham rus tadqiqotchilari ko'p mehnat qilishgan. Mashhur rus olimi, hozirgi zamon ilmiy tuproqshunosligiga asos solgan V.V.Dokuchayev (1846-1903) o'zining ko'pgina asarlarida bu sohada dastlabki ma'lumotlarni bergan.

O'rta Osiyo xalqlarining turmushiga bag'ishlangan, ilmiy va o'lkashunoslikka doir turli xabar va maqolalar "Туркестанские ведомости" hamda "Turkiston viloyatining gazetisi" va boshqa mahalliy matbuotda muntazam bosilib turdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Nabiyev-“Tarixiy o’lkashunoslik”. Toahkent-1996
2. F.Ochildiyev-“Tarixiy o’lkashunoslik”. Toshkent 2020
3. F.Ochildiyev-“Tarixiy o’lkashunoslik”. T.: Universitet 2008
4. A.Kabirov, A.Sagdullayev O’rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent 1990